

EVIDENSIAL HODISANING NAZARIY TASNIFI

*Ilmiy rahbar: Xamrayeva Maxzuna G‘ayratovna
Turon universiteti, G‘arb tillari kafedrasi v.b.dots*

Tel: 88-237-50-10

Talaba: Eshnazarov Sardor G‘affor o‘g‘li

Turon universiteti, 3-kurs talabasi

Tel: 77-338-36-43

Annotatsiya: Maqolada evidensiallik hodisasi dunyoning ko‘plab olimlai fikrlari doirasida tahlil qilinib, o‘xhash kontekstlar doirasida yoritib berildi. Evidensiallik hodisasi asosan sezgi fe’llari orqali ifodalananib, uning oltidan ziyod turi o‘rganildi hamda bir-biriga o‘xhash misollar yordamida ochib berildi.

Kalit so‘zlar: evidensiallik hodisasi, mish-mish evidensialligi, visual evidensiallik, tahminiy evidensiallik, tarixiy evidensiallik, guvohiy evidensiallik, xabar berish evidensialligi.

Abstract: The following article provides information about the phenomenon of evidentiality analyzed within the framework of the opinions of many scientists of the world, and illuminated within the framework of similar contexts. The phenomenon of evidentiality is mainly expressed through perceptual verbs, more than six types of it have been studied and revealed with the help of similar examples.

Key words: the phenomenon of evidentiality, hearsay evidentiality, visual evidentiality, inferential evidentiality, folklore evidentiality, witness evidentiality, informative evidentiality.

Ma’lumki, evidensiallik lingvistik hodisa bo‘lib, undagi bosh ma’no ma’lumot o‘chog‘i sanaladi, bu esa har qanday turdagи ma’lumotning, xoh u rost bo‘lsin yoki yolg‘on, tinglovchi tomonidan qabul qilinganini bildiradi. Evidensiallikda e’tibor yetkazilayotgan axborotning tag ma’nosiga ham qaratilishi hamda u hattoki bajarilmagan ish-harakatni ham bajarilgan kabi yuzaga keltirishi mumkin [Ayhenvald 2004; 3].

Bugungi kunga qadar evidensiallik hodisasi borasida keng qamrovli tadqiqotlar xorijiy ilmiy manbalarda olib borilgan bo‘lib, unga dunyo olimlari turlicha yondashganlar. Misol uchun, Mixail Makarsev “Evidensiallik o‘ziga xos lingvistik hodisa bo‘lib, uning yordamida so‘zlovchi voqeani tavsiflashda bevosita ishtirokchi yoki o‘zganining so‘zlarini yetkazuvchi sifatida o‘z rolini belgilaydi” degan [Makarsev 2014; 28].


Tilshunos Sara Murey evidensial tahlilni quyidagicha ta’riflaydi: “Evidensial tahlilda zamon va modallik bir-biri bilan o‘zaro aloqaga kirishadi, chunki evidensial

markerlar temporal oriyentatsiyaga qaratilgan bo‘ladi. Ko‘pincha evidensiallik aytilgan gapning biror-bir subyekt tomonidan qabul qilinishi bilan belgilanadi deb quyidagi misolni keltiradi: *It reportedly snowed near Cairo last year. It will reportedly snow near Cairo tomorrow*“. Har ikkala gapda reportedly ravishi birdek qo‘llangan. Chunki, u na o‘tgan zamonni va na kelasi zamonni ifodalaydi. Bunda fe’lning roli muhim” deya e’tirof etadi [Murray 2017; 31].

Evidensiallikda biror shaxsning qanday dalil bo‘lishidan qat’i nazar, ma’lum faktik ma’lumotga doir tasdig’ini anglatishi nazarda tutiladi [Lloyd 1986; 273].

Ispaniyalik tilshunos Bert Kornili evidensiallik hodisasini idrokni aks ettiruvchi til tarkibining kognitiv-lisoniy voqelanishi natijasida paydo bo‘ladigan real voqelikkha aloqador hodisa deya ta’riflaydi [Cornillie 2004, 168]. Kognitiv deganda aynan eshitilgan ma’lumotga nisbatan kishining ongida paydo bo‘ladigan tasavvurga ishora qilinadi.

Quyidagi chizmada evidensiallik hodisasining turlarini ko‘rishimiz mumkin:



Vizual evidensiallik deganda kishining o‘z ko‘zi yordamida kuzatilgan ma’lumot, *guvohiy evidensiallik* deganda kishi o‘zi bevosita ishtirok etgan ma’lumot, *mish-mish evidensiallik* deganda o‘zgalardan eshitilgan ma’lumot, *tarixiy evidensiallik* deganda avval sodir bo‘lgan voqeaga asoslangan ma’lumot hamda *tahminiy evidensiallik* deganda ma’lum obyekt yoki voqeа-hodisaga asosan kishining oldindan beradigan fikri nazarda tutiladi.

Evidensiallik subyekt o‘zi guvoh bo‘lgan, eshitgan yoki bilvosita o‘zlashtirgan ma’lumotni ifodalovchi lisoniy vositalarning tarkibi bo‘lgan *leksik*, *grammatik*, *sintaktik* hamda *diskursiv* belgililar tahliliga bog’liqdir. Evidensiallik hodisasi gapning semantik xususiyatlari bilan aloqador bo‘lib, subyekt yetkazayotgan ma’lumotning mazmuniga munosabatni aks ettirib, lingvistik hodisa sifatida qaraladi. Ta’kidlash joizki, evidensiallik ma’lum subyektning shaxsiy kuzatish yohud bevosita guvohlik berishini amalga oshirib, biror kimsaning ma’lum obyektni yoki voqelikni sezgi organlari bo‘lmish *ko‘rish*, *eshitish*, *teri orqali his qilish*, *hid bilish* hamda *ta’m bilish*

yordamida aniqlashi natijasida o‘z fikrini ifodalashda namoyon bo‘ladi. Bunga misol qilib, Robert Kreysning Chasing Darkness asaridagi misolga e’tibor qaratamiz:

I saw coffee still tasted sour. – Xabar berish evidensialligi, bunda so‘zlovchi kofeni ichgan shaxsning yuzi burishib ketgani haqida xabar qilinmoqda.

I heard coffee still tasted sour (She told me). – Mish-mish evidensialligi, ya’ni boshqalardan eshitilgan ma’lumot.

I felt coffee still tasted sour (I tasted it) – shaxs o‘zi guvohi bo‘lgan ma’lumotni yetkazmoqda.

Look, coffee really tastes sour! (My face has discontented) – Xulosaviy evidensiallik.

This coffee used to taste sour. – Tarixiy evidensiallik.

Bundan tashqari, evidensiallik faqatgina ma’lum bir obyektning axborot manbasini aniqlash uchun emas, balki unda keltirilgan dalillarning sifati, ularning haqiqatga yaqin bo‘lgan yoki bo‘lmagan konseptiyasini epistemik dalil bilan bog’lashi nazarda tutiladi.

Evidensial ma’lumot - eshitish, tinglash, o‘z ko‘z bilan ko‘rish yoki o‘z tanasi orqali his qilish, davomida yuzaga keladi. Yuzaga kelgan ma’lumotni so‘zlovchi boshqalarga o‘zgartirgan yoki bo‘rttirgan holatda yetkazishi ham mumkin. Bu esa mish-mish evidensialligi deyiladi. So‘zlovchi yetkazayotgan ma’lumotidagi voqeada o‘zi ishtirok etgan bo‘lsa guvohiy, etmagan bo‘lsa mish-mish evidensialligi sanaladi. Masalan,

*Anavi kishi Fransiyadan **kelganmish**. – mish-mish evidensialligi*

*Anavi kishini Fransiyadan **kelibdi** – mish-mish evidensialligi.*

*Anavi kishini Fransiyadan **keldi** deb eshitdim – xabar berish evidensialligi.*

*Anavi kishi Fransiyadan **kelganini** o‘zim ko‘rdim – guvohiy evidensiallik.*

*Menimcha anavi kishi Fransiyadan **kelgan** bo‘lsa kerak bo‘ynida Fransiya deb yozilgan sharfni ko‘rdim. – tahminiy evidensiallik.*

*Ana Fransiyadan **kelgan** kishi, qaragin! – vizual evidensiallik.*

*Avvallari Fransiyadan **kelganlar** mana shu platformadan turishardi – tarixiy evidensiallik.*

Bundan tashqari, kishining ma’lum fakt, mantiq yoki voqe-a-hodisaga ko‘ra xulosa chiqarishi, xulosaviy evidensiallik deya yuritiladi. Jumladan,

The teacher has apparently come, I heard her voice – o‘qituvchi keldi, ovozini eshitdim.

I presume the teacher has just come, I see her footprint – Menimcha o‘qituvchi hozirgina kelgan, uni oyoq izini ko‘rdim.

Evidensiallikni aniqlashning yana bir yo‘li taassurot bilan bog‘liq tilshunoslik birliklarining turli xil xususiyatlarini yagona tarkibga birlashtirishi bilan belgilanadi.

Yuzaga kelgan xilma-xil ma’nolar bir necha aspektlarda o‘xhash hodisalarni

aniqlashga qaratiladi. Evidensiallik o‘z navbatida kognitiv hamda funksional-semantik tahlilda aniq status sifatida voqelanish bilan aloqador xususiyatlarni ham qamrab oladi. Bunda ba’zi an’naviy evidensial hodisalar ko‘pincha sinalgan, kuzatilgan yoki eshitilgan ma’lumot bo‘ladi. Yuqoridagi nazariyalarga asoslangan holda klassik evidensial kategoriyalarni quyidagi kichik guruhlarga ajratish mumkin:

A) *Experienced*, ya’ni tajriba sinovidan o‘tgan ma’lumot. – *John’s had a severe car accident today.* – *How do you know?* – *I have seen it myself.* Bunda so‘zlovchi o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan voqeani aytib beradi.

B) *Inferencial*, ya’ni tahminiy fikrga asoslangan ma’lumot. – *John appears to be home (His car is in front of the door and the lights are on).* Bunda so‘zlovchi ma’lum obyekt orqali o‘z mulohazasini bildiradi (xoh u to‘g’ri bo‘lsin yoki noto‘g’ri, bunda aytilayotgan ma’lumot o‘zining aniq isbotini topgani yo‘q, shunchaki tahmin qilinmoqda.

C) *Hearsay*, ya’ni mish-mish evidensialligi – *I hear you have got a tuition waiver at Stanford, congratulations!* Bunda birinchi shaxs ikkinchi yoki uchinchi odam haqida o‘zgalardan eshitgan ma’lumotini aytib beradi. Evidensial birliklar o‘zining boy, original va empiric ma’lumotidan tashqari grammatikalizatsiya darajasiga qarab evidensial turlarni to‘ldiradi [Haan 2013; 118].

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, evidensiallik hodisasi o‘zbek tilidagi misollarimizning barchasi, turli xil kontekstlarda bo‘lishidan qat’i nazar, deyarli bir xil ma’noni anglatadi. Ingliz tilidagi gaplarimiz esa, o‘zining asl ma’nosidan biroq yiroqlashadi. Evidensial tushuncha hozirgi kunda tilshunoslik sohasida ilmiy yangilik sifatida qaraladi. Chunki, evidensial ifoda dalilning grammatik, leksik, sintaktik, diskursiv, kognitiv hamda pragmatic voqelanishining og’zaki ifoda shakli hisoblanadi. Shuningdek, evidensiallikni sezgi fe’llari orqali tahlil qilish maqsadga muvofiq. Chunki, so‘zlovchi o‘zi ko‘rgan, eshitgan va tahmin qilgan voqeа-hodisalarni o‘zgartirmasdan yoki biroz bo‘yoqdor ranglardan qo‘shtan holda o‘zgalarga yetkazishi fanda isbotlangan hodisadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alexandra Aikhenvald. *Evidentiality*. – Oxford University Press 2004. – 481 p.
2. Bernard Lloyd. *Evidentials: Paths of Change and Mental Maps: Typologically regular asymmetries*. – Norwood 1986. – 373 p.
3. Bert Cornillie. *Evidentiality and Epistemic modality. On close relationship between two categories*. – Functions of language 2004. – 168 p.
4. Ferdinand de Haan WALS. *Semantic Distinctions of Evidentiality*. – Privacy Policy Disclaimer 1999. – 413 p.
5. Макарцев М.М. Эвиденциальность в пространстве балканского текста. – М.: Нестор-История 2014. – 444 с.

-
6. Sarah Murray. The semantics of Evidentials. – Great Slarendon Street Oxford, UK: 2017. – 191 p.

